**Abstract:** This article is focused on studying the theoretical foundations of ensuring inclusive economic growth in regions, and scientific and practical recommendations are provided based on the research results. In particular, a system of indicators for ensuring inclusive economic growth in regions is proposed.

**Key words:** inclusive economic growth, poverty rate, unemployment rate, Gini coefficient, Lorenz curve, income differentiation, inequality.

**Аннотация:** Настоящая статья направлена на изучение теоретических основ обеспечения инклюзивного экономического роста в регионах, а также в результате исследования даны научно-практические рекомендации. В частности, предложена система индикаторов, обеспечивающих инклюзивный экономический рост в регионах.

**Ключевые слова:** инклюзивный экономический рост, уровень бедности, уровень безработицы, коэффициент Джини, кривая Лоренца, дифференциация доходов, неравенство.

I. KIRISH

O'tgan davrlar mobaynida jahondagi iqtisodiyotida qator o'zgarishlar ro'y berdi, jahon iqtisodiyoti sekim bo'lsa-da, o'sishqa erishdi.

Biroq qashshoqlik va tengsizlikni qisqartirish bo'yicha keng ko'lamlı vazifalar ijrosi amalga oshirilmadi, ya'ni bugungi kundagi erishilgan iqtisodiy o'sish aholining real turmush darajasini aks ettirmaydi hamda rivojlanayotgan davlatlardagi aholi o'tasidagi tengsizlikni qisqartirish bo'yicha samarali choralarни rag'batlantirmaydi. Inkiyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash esa ushbu muammolarni samarali hal etishqa undaydi.

So'ngi yillarda inkluyuziv iqtisodiy o'sishning ahamiyati oshib bormoqda, xususan 2017-yilda Jahon iqtisodiy forumi doirasida "Inclusive Development Index" – inkluyuziv rivojlanish indeksi joriy etilgan. Bu iqtisodiy indeks (yillik) bo'lib, mamlakatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini uchta ustun bo'yicha baholaydi, bular o'sish va rivojlanish, inkluyuzivilik hamda avlodlararo tenglik hamda barqarorlik [1].

Ushbu indeks yalpi ichki mahsulotdan farqli o'laroq, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yaxshilaniш darajasini va tezligini o'lchaydi (bir balldan 7 ballgacha baholanadi, ball qancha yuqori bo'lsa, inklyuzivlik shuncha yuqori deb hisoblanadi, 100 tadan ortiq mamlakatlarni iqtisodiy ko'satkichlari asosida baholash yo'lgan qo'yilgan, rivojlangan mamlakatlar bo'yicha Norvegiya, Islandiya, Luksemburg yuqori o'rirlarda qayd etilgan bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlar bo'yicha Litva, Vengriya yuqori o'rinda turadi).

Mazkur indeks 12 ta ko'rsatkichga asoslanadi va yuqorida qayd qilganimizdek, iqtisodiy rivojlanishni 3 quruhqaga birlashtirilqan.

- O'sish va rivojlanish (YAIM o'sishi, bandlik, mehnat unumdarligi, umr ko'rish davomiyligi);
  - Inklyuzivlik (uy xo'jaliklarining median daromadlari (medianniy doxod domoxozyaystv), kambag'allik darajasi va tengsizlik);
  - Barqarorlik va avlodlargaadolatlilik (davlat qarzi, jamg'arma darajasi, demografik yuk, atrof-muhit iflosi).



Shu sababli, yalpi milliy (hududiy) mahsulot o'sishi yoki aholi jon boshiga yalpi milliy (hududiy) mahsulot o'sishi statistik hisobotlarni yuritish uchun kerak, biroq aholi daromadlarini va bandligini oshirish borasida iqtisodiy qarorlar qabul qilish, real iqtisodiy o'sishga erishish yoki aholi turmush tarzini baholash uchun bu ko'rsatichlar yetarli emas.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini raqobatdoshligini oshirish, bozor islohotlari va tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida mintaqalarni kompleks va mutanosib rivojlanishini ta'minlash asosida ularni inkyuziv iqtisodiy o'sishini ta'minlashning, xususan aholi daromadlari va bandligini oshirish, yangi ish o'rinnari yaratishning ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda.

Shu davrga qadar iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy sharti unumdorlik hamda samaradorlik oshishiga erishish va asosiysi rivojlanishni ta'minlash bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda inkyuzivlikni ta'minlashni ham hisobga olish kun tartibidagi asosiy masala ekanligini ko'rsatmoqda, ya'ni barqaror inkyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash muhim vazifa sifatida kun tartibida namoyon bo'limoqda.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida kambag'allikni ikki baravarga qisqartirish asosiy vazifa sifatida belgilanib, hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 baravarga oshirish vazifasi belgilab qo'yilgan<sup>[2]</sup>.

Hududlarning mehnat, tabiiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatlari o'tasida farqlarning mavjudligi, nomutanosibliklarning yuqoriligi ularda iqtisodiy islohotlarni, ayniqsa kompleks va mutanosib rivojlantirishni nazarda tutuvchi tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishda turli xil yondashuvlarni taqozo qiladi.

Bunda hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyati, rivojlanish darajasi, mavjud resurslari, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasining shakllanishi, geografik joylashishi, tashqi iqtisodiy faoliyat masshtabi bo'yicha keskin tafovut va farqlar borligini hisobga olish zarur.

Bu kabi omillar hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solinishini, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda davlat tomonidan alohida yondashuvlar asosida iqtisodiy siyosat yuritishini taqozo etadi.

Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish, ularni mutanosib va kompleks rivojlanishini ta'minlash hamda har bir oilada jon boshiga daromadni oshirish orqali aholi daromadlarini yanada oshirishga erishishdan iborat bo'lishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda inkyuziv iqtisodiy o'sishning nazariy jihatlari, inkyuziv iqtisodiy o'sishni bitta yaxlit integral ko'rsatkichda aks ettirishning nazariy va metodik tomonlarini yoritish tadqiqotning yanada dolzarbligini ko'rsatadi.

## II. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hududlarda iqtisodiy o'sish inkyuzivligini ta'minlashning nazariy hamda uslubiy jihatlarini tadqiq qilish jarayonida bir qator Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari, mamlakatimiz olimlari va xorij mamlakatlari olimlari, xalqaro moliya institutlari olib borgan tadqiqotlarni o'rgandik hamda o'zimizning tadqiqotimizni amalga oshirdik.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan:

Paramasivan S Vellala va boshqalar tomonidan "Hindistonda inkyuziv iqtisodiy o'sishning nazariy modeli" nomli maqolasida Hindiston iqtisodiyoti so'ngi yigirma yil Pro Poor Growth (PPG)dan Inclusive Growth (IG)ga o'zgarishi o'rganilgan, shuningdek, inkyuziv o'sish modeli uchun nazariy asos taklif qilingan<sup>[3]</sup>.

Valerie Cerra tomonidan "Inkyuziv o'sishning asosi" nomli maqolasida inkyuziv o'sish muammolari va ularni yechish uchun takliflar ishlab chiqilgan<sup>[4]</sup>.

Chaowei Zhu tomonidan "Inkyuziv iqtisodiy rivojlanishni konsepsiyalash va baholash: samaradorlik istiqboli" nomli maqolasida inkyuziv iqtisodiy rivojlanishni konsepsiyalash va uni baholash uchun unumdorlik istiqboli taklif qilingan<sup>[5]</sup>.

G. Gerard, M.A. McGahan, J. Prabhu kabi olimlar tomonidan "Inkyuziv o'sish uchun innovatsiyalar: nazariy asos va tadqiqot sifatida" nomli maqolasida inkyuziv innovatsiya konstruksiya atrofida tadbirkorlik, strategiya va marketing sohalarida nazariya va empirik tadqiqotlarni rivojlantirish imkoniyatlari haqida to'xtalib o'tilgan<sup>[6]</sup>.

Inkyuziv rivojlanish konsepsiyasini Shimoliy Amerikalik iqtisodchi D. Adjemoglu va Britaniyalik siyosatshunos Dj. Robinsonning dunyo tengsizligi va gullab-yashnashi hodisalari haqidagi fikrlaridan kelib chiqqan holda inkyuziv institutlar nazariyasiga asoslanadi<sup>[7]</sup>.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan:

I.V. Gersonskaya tomonidan "Iqtisodiyotning inkyuziv o'sish konsepsiysi: rus jamiyatini rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar" nomli maqolasida Inkyuziv iqtisodiy o'sish konsepsiyasining qoidalari ko'rib chiqilgan va uning Rossiya jamiyatini rivojlanishidagi ahamiyati asoslangan<sup>[8]</sup>.

A.N. Senko tomonidan "Mamlakat hududlarida inkyuziv iqtisodiyotning o'sish omillari" nomli risolasida mintaqalararo nomutanosibliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqqan<sup>[9]</sup>.



O.A. Nesterova, O.V Sanfirova, T.A. Petrova kabi olimlar tomonidan “Inklyuziv iqtisodiy o’sish konteksti” nomli maqolasida inklyuziv iqtisodiy o’sish ta’rifi va asosiy mazmuni bo‘yicha yondashuvlar o‘rganilgan [10].

R.T. Burjanov, L.A. Yelshin, A.R. Sharapovlar tomonidan “Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minalash mexanizmi sifatida inklyuziv o’sish konsepsiysi” nomli maqolasida milliy va mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning global qiymat zanjiriga integratsiyalashuvi orqali iqtisodiy o’sishning jadallahuvini oldindan belgilab bir qator ijobiy va salbiy tashqi ta’sirlar o‘rganilgan [11].

Mamlakatimiz olimlari tomonidan inklyuziv iqtisodiy o’sish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish boshlangan bir davrda, hududlarda iqtisodiy o’sish inklyuzivligini ta’minalashning nazariy asoslari juda muhim hisoblanadi.

Inklyuziv o’sish va inklyuziv rivojlanish ta’rifi atrofidagi nazariy va uslubiy kurash bizni iqtisodiy nochor guruhlarni qashshoqlikning obyektivi orqali o‘rganish rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi tobora ravshan siyosiy raqobat sharoitida tengsizlikning rivojlanish jarayonlarini depolitizatsiya qilish istagi bilan asoslanib, uni qo‘srimcha davlat va xususiy hamkorlik institutlari zanjiri bilan bog‘laydi. Shunday qilib, Jahon banki “inklyuziv yashil o’sish” atamasidan foydalanadi, uni “barqaror rivojlanishga olib boradigan yo‘l” va “rivojlanayotgan mamlakatni gullab-yashnash darajasiga olib chiqish uchun zarur bo‘lgan tez o’sishning yagona yo‘li” deb biladi.

Xususan, aholi daromadlarini va bandligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali hududlarda barqaror va inklyuziv iqtisodiy o’sishni ta’minalash tadqiqotimizning maqsadi hisoblanadi.

Shuning uchun, aholi daromadlarini oshirishiga imkon berish, sharoit va imkoniyat yaratish orqali hududlarda aholi daromadlarini oshirishga asosiy e’tibor qaratiladi, degan gipoteza orqali tadqiqot olib bordik.

### III. MATERIAL VA METOD

Jahon tajribasidan ko‘rish mumkinki, barqaror iqtisodiy o’sish inklyuziv o’sishni talab qiladi. Buni saqlab qolish ba’zan qiyin, chunki iqtisodiy o’sish rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy muammo bo‘lgan korrupsiyaning o’sishi kabi salbiy tashqi ta’sirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunga qaramay, inklyuzivlikka, ayniqsa bozorlarga, resurslarga va xolis tartibga solish muhitiga kirish nuqtayi nazaridan imkoniyatlar tengligiga urg‘u berish muvaffaqiyatli o’sishning muhim tarkibiy qismidir.

Shu bilan birga, xalqaro maydonagi kuzatilayotgan iqtisodiy noaniqliklar, global zanjirdagi uzilishlar, Covid-19 pandemiyasi oqibatlarini yumshatish, iqlim o‘zgarishi hamda xalqaro maydonagi kuchayib borayotgan iqtisodiy xatarlar inklyuziv o’sishni ta’minalash zaruriyatini yanada oshirmoqda.

Olimlarning fikricha inklyuziv o’sish – bu aholining keng qatlamlari uchun turmush darajasini oshiradigan iqtisodiy o’sish.

Shu bilan birga, inklyuziv o’sish bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ta’kidlashicha, ba’zi iqtisodiy o’sish omillari salbiy siyosiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirishgan.

Shuningdek, inklyuziv o’sishning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ta’riflariga ko‘ra, iqtisodiyotning mikroiqtisodiy determinantlari va iqtisodiy o’sish o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni nazarda tutgan.

Mikroiqtisodiy o‘lchov iqtisodiyotni diversifikasiya qilish va raqobat uchun tarkibiy o‘zgarishlarning ahamiyatini aks ettiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ming yilga rivojlanish maqsadlari va mazkur maqsad o‘rniga keyinchalik qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari talabiga muvofiq bir kunda 1,25 AQSH dollaridan kam mablag‘ga ega shaxs qashshoqlikda kun kechirishning chegarasi sifatida belgilagan, ya’ni mazkur shaxslarning ko‘p qismi yetarli ovqatlanish, toza ichimlik suvi va sanitariya sharoitlaridan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Qashshoqlikning barcha shakllariga barham berish barcha insoniyatning jiddiy muammolaridan biri sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Qashshoqlik chegarasidan pastroqda yashovchi aholi sonining o’sishi nafaqat ushbu aholi yashashiga salbiy ta’sir etadi, balki hudud va mamlakat iqtisodiy o’sishiga ta’sir qiladi, ya’ni xarid qobiliyati yo‘qoladi.

Inklyuziv o’sishni ta’minalash esa ijtimoiy birdamlik buzilishining, siyosiy va ijtimoiy keskinliklar yuzaga kelishining, jinoyatchilikning yuqori darajaga chiqishining, siyosiy beqarorlik va qurolli mojarolarning oldi olinishiga erishiladi.

Mamlakatdagi metodologiyaga asosan belgilangan kambag‘allik darajasi bilan birgalikda turli qatlamlardagi aholining ish bilan bandligi darajasi, daromadlar taqsimlanishining tengsizligini ifodalovchi Djinni koeffitsiyenti orqali inklyuzivlikni baholash mumkin.

Inklyuziv iqtisodiy o’sish jamiyatning farovonligini ta’minalash maqsadida aholining turli qatlamlari o‘rtasidagi tengsizlikni qisqartirish orqali ijtimoiy birdamlikni ta’minalash hisoblanadi.

Bu esa hududlarda inklyuziv iqtisodiyotni ta’minalashdan shakllanadi va sodda qilib aytganda barchani hisobga olib rivojlantirishni anglatadi.



Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti inklyuziv o'sishni aholining barcha qatlamlariga imkoniyatlarni yaratish, jamiyat farovonligini ta'minlash uchun moddiy va nomoddiy boyliklarni adolatli taqsimlash bilan iqtisodiy o'sish deb tushuntiradi.

Jahon banki esa barchani qamrab olgan va aholining iqtisodiy o'sishga o'z hissasini qo'shishiga hamda farovonlik uchun foydalanishiga imkoniyat yaratishni inklyuziv o'sish deb izohlaydi.

Osiyo taraqqiyot banki – barchani qamrab olgan o'sish bo'lib, nafaqat yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish balki imkoniyatlardan teng foydalanishga dostup berish, ayniqsa aholining zaif qatlamlariga deb tarif beradi.

Birlashgan millatlar tashkilotining taraqqiyot dasturi barchani qamrab olgan o'sish bo'lib, qoida tariqasida iqtisodiy o'sish barcha uchun farovonlikni ta'minlash deb keltiradi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi farovonlik va imkoniyatlarni keng taqsimlash bilan iqtisodiy o'sishda barchani qamrab olishdir va bu o'sish barqaror va keng qatlamni ichiga oladi, barcha ishchi kuchini samaradorligini namoyon qiladi va bozor va resurslarga teng imkoniyat yaratishni ta'minlaydi hamda aholining zaif qatlamlarini himoya qiladi.

Tariflarni ko'rib chiqib, inlyuzivlikning xususiyatlarini yakunda ikki asosiy natija bilan ko'rish mumkin:

- har bir fuqaroning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda mehnat faoliyatiga jalb etilishi;
- har bir fuqaroning hayot faoliyatining asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyatga ega bo'lishi (oziq-ovqat, suv, kiyim-kechak, sog'iqliqi saqlash, turar joy, ta'lim va energiya resurslari).

Hududlarda inklyuziv o'sishni ta'minlashda davlat tomonidan institutsional sharoitlarni shakllantirishga e'tibor qaratishi kerak.

Yuqoridaq olimlar hamda xalqaro moliya institutlarining ta'riflarini inkor qilmagan holda, inklyuziv o'sishga quyidagi ta'rifni keltiramiz, inklyuziv iqtisodiy o'sish – bu aholining zaif qatlamlarini inobatga olgan holda mammalakatda har bir aholi daromadlari va bandligini oshishi hamda tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi uchun adolatli imkoniyat va zaruriy shart-sharoitlarni yaratilishini ta'minlash.

Covid-19 pandemiyasi oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash amalda yanada muhim ekanligini ko'rsatib berdi.

Mamlakat aholisining kambag'allik chegarasidan (Jahon banki tomonidan o'rtacha past daromadli mammalakatlar uchun hisoblab chiqilgan - sotib olish qobiliyati pariteti bo'yicha har bir kishiga kuniga 3,2 dollar) pastda yashayotgan qismi bilan manzilli ishlash kun tartibiga chiqmoqda.

Karantin chekllovlar o'rnatilgan vaqtida bu muammo yanada keskinlashdi – yana bir millionga yaqin fuqaro kambag'allik chegarasidan pastga tushib qolganligini Jahon banki o'z hisobotlarida qayd etdi.

Kambag'allikni qisqartirishda kambag'al aholining doimiy daromad manbaini yaratish uchun dastlabki kapitalini shakllantirishga ko'maklashish, inson kapitali sifatini oshirish, kambag'al oilalarga to'g'ridan to'g'ri moddiy va nomoddiy yordam ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv o'sish yondashuvi uzoq muddatli istiqbolni nazarda tutadi, chunki asosiy e'tibor kambag'al va daromadi kam aholi guruhlarining turmush darajasini oshirish vositasi sifatida samarali bandlikka qaratilgan.

Ushbu masalalarni birinchi navbatda nazariy jihatlarini o'rganish va joriy qilish asosiy masala hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda inklyuziv iqtisodiy o'sishning iyerarxiyasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

#### 1-jadval: Inklyuziv iqtisodiy o'sishning iyerarxiyasi

No	Bosqichlar va ularning nomlanishi	Bosqichlar davrlari	Tadqiqot olib borgan olimlar
1	1-bosqich. Mintaqalardagi iqtisodiy o'sishning nomutanosibligi	2000-yilgacha	Atkinson [12]
2	2-bosqich. Inklyuziv o'sishning kirib kelishi	2001–2009-yillar	Hwa Son [13] Elena ba Susanna [14]
3	3-bosqich. Iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda inklyuziv o'sishning namoyon bo'lishi	2010–2019-yillar	Ranieri Rafael [15] Anand Rahul [16]
4	4-bosqich. Iqtisodiy siyosat yuritishda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash muhim vazifaga aylanishi	2020-hozirgacha davrda	Cerra [17] Waite ba Roy [18]

Manba: O'rganigan adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi.

Bugungi kunga qadar mamlakat va uning hududlaridagi nomutanosibliklar hamda o'zaro farqlar kambag'allik darjasini, ishsizlik darjasini, Djini koeffitsiyenti, Lorens egri chizig'i, daromadlar tabaqlanishi kabi ko'rsatkichlarni hisoblash metodlari orqali hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-sen rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini va inklyuziv o'sishning umumiy barqaror rivojlanishga ko'maklashish va "hech kimni ortda qoldirmaslik"dir.



Inklyuziv o'sish o'z navbatida jamiyatning barcha qatlamlariga foya keltiradigan, hech kimni ortda qoldirmaydigan iqtisodiy o'sishni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, hudud, tuman (shahar)ni barqaror va inklyuziv rivojlantirishda quyidagi maqsadlardan kelib chiqish hamda maqsadli ko'satkichlarni haqiqatdagi ko'satkichlardan son va sifat jihatdan yaxshilanishi nuqtayi nazaridan aniq va asoslangan raqamlarda qayd qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash (aholi turmush darajasini oshirish, kambag'allik darajasini qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash);
- inson kapitali sifatini oshirish (ta'lim va sog'liqni saqlash sifatini yaxshilash va qamrovini kengaytirish, malaka oshirish va qayta tayyorlash, tashqi migrantlarni o'qitish);
- iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash (ishlab chiqarish obyektlarini oqilona joylashtirish va ularni infratuzilma bilan ta'minlash, tadbirdorlik va eksport salohiyatini oshirish, qulay investitsion muhitni yaratish, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, sog'lom raqobat muhitini yaratish);
- urbanizatsiyani rivojlantirish (bosh rejalarini ishlab chiqish, shahar aholi punktlari qiyofasini yaxshilash va ularni sifatli infratuzilma bilan ta'minlash, sputnik shaharlarni tashkil etish, uy-joylar qurish, ipoteka bozorini rivojlantirish);
- ekologik holatni yaxshilash (atrof-muhitni muxofaza qilish va obodonlashtirish, iqlim o'zgarishiga moslashish, ekologik ta'sirni yumshatish, ikkilamchi qayta ishslashni tashkil etish);
- ishlab chiqarish obyektlari, aholini barqaror ishlab chiqarish, sifatlari ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlash, shu jumladan muqobil energiya manbalarini rivojlantirish uchun qo'llab-quvvatlash;
- rivojlanishning innovatsion yo'liga o'tish (IT-texnologiyalar, aqlii hudud, smart-tarmoqlar yaratish, davlat-xususiy sherliklikni rivojlantirish, xususiy investitsiyalarni jaib qilish, "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilish, mahalliy hokimliklar faoliyati samaradorligini oshirish, joylarda natijaga yo'naltirilgan boshqaruvni joriy qilish);
- hududda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash (qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish, sohaga resurs rejamkor texnologiyalarni joriy qilish, rivojlanishning intensiv usuliga o'tish, yerlar holatini yaxshilash va hosildorlikni oshirish, aholi tomorqalaridan samarali foydalanish);
- yer resurslaridan iqtisodiy samarali foydalanishga qaratilgan yer islohotlarini amalga oshirish (yerlarni sotish va ijaraga berish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari yerlaridan samarali foydalanish);
- SUV resurslaridan oqilona foydalanish;
- mahalliy budgetlarni mustahkamlash (daromad manbalarini ko'paytirish, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jaib qilish, transfertlar).

Hududlar inklyuziv iqtisodiy o'sishini ta'minlash mexanizmlaridan yana biri – bu mahalliy hokimiyat boshqaruvida samarali iqtisodiy boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish hisoblanadi.

Bunda, mahalliy hokimliklar iqtisodiy qarorlarni qabul qilish jarayonida fuqarolar (tub aholi) ishtirokini yanada kengaytirishga hamda hisobdorlikni natijaviyligini oshirishga alohida e'tibor berishi lozim.

Ya'ni, mahalliy hokimliklar iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonida mahalliy aholining yoki ularning vakili xalq deputatlarining ishtiroki bilan amalga oshirish orqali inklyuzivlik ta'minlanadi.

Yuqoridagilarni amalga oshirish natijasida hududlarda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ko'sratib beruvchi integral ko'satkichni aniqlash va unga baho berish qo'yilgan vazifalarning to'g'riligi hamda ularning bajarilish holatini aks ettiradi.

#### IV. XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada hududlarda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy asoslari yoritilib, ushbu nazariy asoslар bo'yicha fikr bildirgan olimlar va xalqaro moliya institutlarining tadqiqotlari o'rganildi.

O'rganishlar natijasida quyidagilar taklif qilinadi:

*birinchidan*, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini inklyuzivligini ta'minlash respublikamizda nazariy metodologik asoslari yaratilishi, umumlashtirilishi hamda doimiy takomillashtirilishi lozim;

*ikkinchidan*, bozor iqtisodiyoti sharoitida hududlar rivojlanishini inklyuzivligini ta'minlash bo'yicha xorijiy tajribalar umumlashtirilishi va ulardan respublikamizda foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim;



*uchinchidan*, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda raqobatbardoshligini oshirish uchun dasturlarni shakllantirishda inklyuzivlikni ta'minlash yuzasidan metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish lozim;

*to'rtinchidan*, aholi daromadlari va bandligi oshishi hamda tadbirkorlikni rivojlanishi uchun moliyaviy va boshqa qo'llab-quvvatlash choralarini mahallalar kesimida qo'llash mexanizmlarini joriy etish;

*beshinchidan*, hududlarda ma'muriy islohotlarni amalga oshirish orqali aholi daromadlari va bandligini oshishi hamda tadbirkorlikni rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlar va imkoniyat yaratish;

*oltinchidan*, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi inklyuzivligini baholash metodologiyasini ishlab chiqish va shu asosda hududlar iqtisodiy o'sishi inklyuzivligi baholanishi lozim.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. [https://www3.weforum.org/docs/WEF\\_Forum\\_IncGrwth\\_2018.pdf](https://www3.weforum.org/docs/WEF_Forum_IncGrwth_2018.pdf)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmon.
3. Paramasivan S Vellala, Dr. Mani K Madala, Dr. Utpal Chhattopadhyay, "A Theoretical Model for Inclusive Economic Growth in Indian Context" International Journal of Humanities and Social Science Vol. 4, No. 13; November 2014. P. 229-235.
4. Valerie Cerra, An Inclusive Growth Framework In: How to Achieve Inclusive Growth. Edited by: Valerie Cerra, Barry Eichengreen, Asmaa El-Ganainy, and Martin Schindler, Oxford University Press. Valerie Cerra 2022. DOI: 10.1093/oso/9780192846938.003.0001
5. Chaowei Zhu (2022) Conceptualising and evaluating inclusive economic development: a productivity perspective, Development Studies Research, 9:1, 219-229, DOI: 10.1080/21665095.2022.2112729
6. GEORGE Gerard, McGahan Anita M., Prabhu Jaideep. Innovation for Inclusive Growth: Towards a Theoretical Framework and a Research Agenda. (2012). Journal of Management Studies. 49, (4), 661-683. Research Collection Lee Kong Chian School Of Business.
7. Д. Аджемоглу, Дж. Робинсон. Почему одни страны богатые, а другие бедные. Происхождение власти, процветания и нищеты / Пер. с англ. М.: Издательство ACT, 2017.
8. И.В. Герсонская "Концепция инклюзивного экономического роста: новые возможности для развития российского общества" Вестник Челябинского государственного университета. 2021. № 6 (452). Экономические науки. Вып. 73. С. 51–60
9. А.Н. Сенько "Факторы инклюзивного экономического роста регионов страны" Устойчивое развитие экономики: международные и национальные аспекты [Электронный ресурс]: электронный сборник статей III Международной научнопрактической online-конференции, Новополоцк, 18–19 апреля 2019 г. / Полоцкий государственный университет. – Новополоцк, 2019. – 1 электрон. опт. диск (CD-ROM).
10. О.А. Нестерова, О.В Санфирова, Т.А. Петрова "Инклюзивный субъект в контексте экономического роста" Вопросы инновационной экономики. Том, 12 номер. 1 январь-март, 2022 г. С. 209-221.
11. Р.Т. Бурганов, Л.А. Ельшин, А.Р. Шарапов "Концепция инклюзивного роста как механизм обеспечения устойчивого развития национальной экономики" Экономика, предпринимательство и право. Том, 12 номер 10 октябрь 2022 г. С. 2623-2639.
12. Atkinson, A. B. (1970), "On the Measurement of Inequality," Journal of Economic Theory, Vol. 2, No. 3, September, pp. 244-263.
13. I. Ali and H. Hwa Son (2007), "Measuring inclusive growth", Asian Development Review, Vol. 24, No. 1, pp. 11- 31.
14. Elena Ianchovichina and Susanna Lundstrom, 2009. "Inclusive growth analytics: Framework and application", Policy Research Working Paper Series 4851, The World Bank.
15. Ranieri, Rafael; Ramos, Raquel Almeida (March 2013). "Inclusive Growth: Building up a Concept". Working Paper. Brazil: International Policy Centre for Inclusive Growth. ISSN 1812-108X. Retrieved 13 January 2015.
16. Anand, Rahul; et al. (17 August 2013). "Inclusive growth revisited: Measurement and evolution". Centre for Economic Policy Research. Retrieved 13 January 2015.
17. Valerie Cerra, An Inclusive Growth Framework In: How to Achieve Inclusive Growth. Edited by: Valerie Cerra, Barry Eichengreen, Asmaa El-Ganainy, and Martin Schindler, Oxford University Press. Valerie Cerra 2022. DOI: 10.1093/oso/9780192846938.003.0001
18. Waite, David; Roy, Graeme (2 November 2022). "The promises and pitfalls of operationalizing inclusive growth". Regional Studies. 56 (11): 1989–2000.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.